# KOMMUNIKATIV MULOQAT USULLARI BILAN ISHLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

(Pedagogika kollejida tahsil olayotgan bo‘lajak mutaxassislarda)

**O. Azizov**
Jizzax politexnika instituti professional ta’lim kafedrasi dotsent v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**K. Azizova**
Jizzax viloyat, Sh.Rashidov tuman 50-maktabo‘qituvchisi
obidazizov8515@gmail.com

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagogika kollejida tahsil olayotgan bo‘lajak mutaxassislarda kommunikativ muloqat usullari bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** kommunikativ kompetensiya, standart, muloqot qobiliyati, “Metod va master- trening”, ijtimoiylashuv, o‘yin psixoterapiyasi, tamoyil.

## АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о развитии коммуникативных навыков у будущих специалистов, обучающихся в педагогическом колледже.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, стандарт, коммуникативные способности, «Метод и мастер-тренинг», социализация, игровая психотерапия, принцип.

## ABSTRACT

This article provides information on the development of communicative communication skills in future specialists studying at a pedagogical college.

**Keywords:** communicative competence, standard, communication ability, “Method and master training”, socialization, game psychotherapy, principle.

Pedagogika kollejida ta’lim olayotgan bo‘lajak mutaxxassislarning kommunikativ faoliyatini tashkil qilishning metodlaridan foydalanish o‘qituvchi tomonidan puxta rejalashtirilishi kerak. U yoki bu metodning tanlanishi ta’lim jarayonini tashkil qilishning maqsadi, mazmuni, shakli, kommunikativ kompetensiyaning strukturasi va zarur tuzilmaviy tashkil qiluvchilarni shakllantirish

bo‘yicha vazifalar bilan belgilanadi. Bunda tanlov va sanab o‘tilgan metodlarni qo‘llash didaktik sharoitga rioya qilganda samarali bo‘ladi.

Bu sharoit kommunikativ faoliyatda bo‘lajak mutaxassislarning pozitsiyasi va rolini, kommunikativ faollik sharoiti esa ta’lim jarayonida o‘quvchining sub’ektiv pozitsiyasini ta’minlashning asosi sifatida kommunikativ faoliyatni amalga oshirishning usullari: monolog, dialog, polilog, telefonda suhbat va boshqalarni belgilaydi.

O‘zaro munosabat usullari va ularga mos bo‘lajak mutaxassislar kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodlarining korrelyatsiyasi (o‘zaro bog‘liqligi) 1-jadvalda berilgan [2].

Kommunikativ faoliyatda bo‘lajak mutaxassislar rolining o‘ziga xosligi uni rivojlantirish vositalarining klassifikatsiyasini asoslashga sabab bo‘ladi. Bo‘lajak mutaxassislar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish vositalari klassifikatsiyasi ularning kommunikativ faoliyatdagi funksiyalariga asoslanadi. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish vositalarini tanlashda quyidagi sharoitni hisobga olish zarur – kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish vositalarini qo‘llash ularni o‘quvchilarning kommunikativ faoliyatida bajaradigan funksiyasi bilan bog‘liq korrelyatsiyasini ta’minlashga asoslangan bo‘lishi lozim (muloqotda motivatsiya vositalari, muloqotda vositalar – vositachilar, muloqotni mazmuniy ta’minlash vositalari (axborot manbalari).

Muloqot usullari va bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ harakatlarini shakllantirish metodlarining korrelyatsiyasi.

1-jadval

| **Muloqot usuli** | **Kommunikativ harakatlarni shakllantirish metodi** |
|---|---|
| Monolog | O‘quvchi hikoyasi |
| Polilog | Munozara, disput, demokratik suhbat, evristik suhbat |
| Dialog | Suhbatlar: klassik, suqrotcha, demokratik |
| Xabar | Taqdimot |
| Telefonda suhbat | Syujetli-rolli o‘yin |
| Bahs, muhokama | Disput, munozara |
| Telegramma, SMS | Didaktik o‘yin |
| Mulohaza | Suhbat, munozara, disput |
| Chiqish | Taqdimot |
| Argumentatsiya | Isbot |
| Inkor | Disput, didaktik o‘yin, syujetli-rolli o‘yin |
| Savol | Suhbatlar: evristik, suqrotcha, demokratik, syujetli-rolli o‘yin, disput |
| Xat | Didaktik o‘yin, syujetli-rolli o‘yin |

1.1-jadval. Muloqot usullari va boʻlajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish vositalarining funksional korrelyatsiyasi.

1.1-jadval

| **Muloqotdagi funksiyalar** | **Muloqot motivatsiyasi vositalari** | **Muloqotdagi vositalar-vositachilar** | **Muloqotni mazmuniy ta'minlash vositalari – axborot manbalari** |
|---|---|---|---|
| Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish vositalari | San'at asarlari, koʻrgazmali vositalar, notiqlarning chiqishlari, natural ob'ektlar | Mobel aloqalar, ijtimoiy tarmoqlar, PK – vositachi sifatida, diktofon, mikrofon | Darslik, ma'lumotli adabiyotlar, PK – axborot manbasi sifatida, OAV |

Bizning ishimizda koʻrsatilganidek, maqsad, vazifalarning mavjudligi va boʻlajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning sanab oʻtilgan shartlariga rioya qilish mazmun, shakl, metodlar, vositalarning optimal tanlanishini belgilaydi va rejalashtirilgan natijaga erishishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, boʻlajak mutaxassislarning kommunikativ faoliyati yetakchi motivlarini aniqlash kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning ikkinchi – kommunikativ-faoliyatli bosqichiga oʻtishga imkon beradi. Kommunikativ-faoliyatli bosqich boʻlajak mutaxassislarning kommunikativ faoliyatga bevosita kirishishini koʻzda tutadi. Motivlarning mavjudligi natija sifatida, oʻquvchining muloqot faoliyatiga qimmatli munosabati shakllanish predmetini – kommunikativ maqsad qoʻyishni belgilaydi. Maqsad qoʻyishni shakllantirish zarurati boʻlajak mutaxassislarning kommunikativ faoliyatda sub'ektiv pozitsiyani qabul qilish muhimligi bilan izohlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qoʻshimcha. chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PF-5812-sonli Farmoni. https://nrm.uz/

2. Salnikova O.A. Sovershenstvovanie kommunikativnoy kompetensii uchitelya : konspektы leksiy ; treningi. - M. : Flinta : NOU VPO «MPSI», 2011. — 88 s.

3. Ergashjanovich, A. O. (2022). Methodology of organizing and conducting experimental works to determine the development of communicative competence of the students of the pedagogical college. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(9), 151-157.

4. Азизов, О. Э. (2023). Педагогика коллежида таҳсил олаётган мактабгача таълим ташкилоти бўлажак тарбиячиларида коммуникатив компетенцияни ривожлантириш компонентлари. Educational Research in Universal Sciences, 2(6), 390-393.
5. Азизов, О. (2022). Педагогика коллежи ўқувчиларининг коммуникатив компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантиришда инновацион ёндошув. Innovations in primary education, (1).
6. Alikulov, S. T., & Azizov, O. E. (2021). The Structure and Content Of The System for the Formation of Communicative Competencies of Future Teachers. Current Research Journal of Pedagogics, 2(06), 141-151.
7. Azizov, O. (2021). Ўқувчилар каммуникатив компетенциясини “Санъат” фанларини ўқитиш жараёнида шакллантириш ва ривожлантириш. Журнал инновации в начальном образовании, 2(Архив№ 3).
8. Alikulov, S. T. (2020). Mechanisms of implementation of interdisciplinary relationships between public education and vocational sciences. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 524-526).
9. Azizov, O. E. (2022). Turabov AM The Importance of Approaches and Trends in the Development of the Components of Communicative Competence. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 124-126.
10. Azizov O.E., Pedagogika kolleji oʻquvchilariga kommunikativ kompetensiyalarning tarkibiy qismlari. Namangan davlat universiteti – ilmiy axboratnomasi. OAK Jurnal. 2021y.11.02 (2-son)
11. Azizov, O. E. (2022). Boʻlajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyalarini oʻquv-ilmiy jarayonlarda rivojlantirish. Science and Education, 3(12), 693-702.
12.Azizov, O. (2022). Pedagogika kolleji oʻquvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion yondoshuv. Boshlangʻich ta’limda innovatsiyalar, (1).
13. Azizov, O. Pedagogika kollejida tahsil olayotgan maktabgacha ta’lim tashkiloti boʻlajak tarbiyachilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish komponentlari.Educational Research in Universal Sciences (ERUS)